



## DIZARTRIYA NUTQ KAMCHILIGIDA BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Qo'qon davlat pedagogika instituti*  
*Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti, PhD*  
*Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna*  
*Logopediya yo'nalishi talabasi*  
*Akramova Zeboxon Akmal qizi*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233282>

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada dizartriya nutq nuqsoni va undagi tovushlar talaffuzining keyingi xususiyati emotsional – harakat innervatsiyasining buzilishi, bu nutqning prosodik tomonidagi buzilishlari haqida so'z boradi

**Kalit so'zlar;** dizartriya, periferik, neyron, periferik paralich, nutq

Periferik harakatlantiruvchi neyronlarning yadrosining o'zi nerv impulslarini miya po'stlog'idan markaziy harakatlantiruvchi neyronlir, boshqacha kilib aytganda piramida yo'li bilan qabul qiladi.

Hozirga qadar markaziy harakatlantiruvchi neyronlarning tanasini oldingi ildizi markaziy egatlarning /o'ng va chap/ po'stlog'ida ma'lum ketma-ketlikda joylashgan deb hisoblanib kelinardi. Til, lab, yutqin, tomoq harakatini innervatsiya qilishga tegishli xujayralar oldingi markaziy egatlarning pastki qismida joylashgan. Barcha piramida yo'li tolalari birga qo'shib miya po'stlog'i osti yadrolari orasidan yarimsharning oq moddasi buylab miya stvolining badal qismiga o'tadi. Uzunchoq va orqa miya chegarasida piramida yo'li o'ng va chap tomonlari tolalarining katta qismi bir-birini kesib o'tadi va orqa miyaning periferik harakatlantiruvchi neyronlar xujayralirida tugaydi.

Agar periferik paralichda barcha ixtiyoriy va ixtiyorsiz harakatlar buzilsa, markaziy spastik paralichda avvalo ixtiyoriy harakatlar zararlanadi, ixtiyorsiz harakatlar esa saqlanishi mumkin. Piramida yo'llari tolalari kontakt yo'lini hosil qiladi. SHuning uchun ularning shikastlanishida asosan bitta ko'p hollarda ikkita qo'l-oyoq qismi harakati eng nozik va differentsiallangan qo'l barmoqlarining harakati buziladi.

Piramida yo'lining bosh miya nervlarining harakatlantiruvchi yadro-lariga po'stloq impulslarini tashuvchi tomonlariga kartikonuklear yoki kartiko – bulbar deyiladi. Ularning shikastlanishida yuzaga keluvchi mus-kullar paralichi markaziy spastik paralich xususiyatiga ega. Sust bulbar paralichlardan farq qilib bu paralichlar psevdobulbar deyiladi.

Bosh miya nervining ko'pchilik harakatlantiruvchi yadrolarining ikki yoqlama po'stloq innervatsiyasi shuni aniqlab beradiki, kortikonuklear yo'llarning bir yoqlama zararlanishi chaynash, yutish, tovush hosil bo'lishida jiddiy funktsional chetga chikishini keltirib chiqarmaydi. Bunday buzilish kortikonuklear yo'llarining ikki yoqlama shikastlanishda sodir buladi. Bunda til muskuli va yuzning pastki qismi muskulining markaziy spastik paralachi e'tiborga olinmaydi, bu muskullar miyaning qarama qarshi yarim sharidan keluvchi kirtikonukleor tolalar bilan innervatsiya kilinadi. Ammo psevdobulbar dizartriya simptomlari, shuningdek, chaynash, yutish va tovush hosil bo'lishining buzilishi odatda til osti va yuz nervlarining ikki yoqlama paralichi mavjudligi natijasida rivojlanadi.

SHuning uchun bir yoqlama miya markazining zararlanishi psevdobulbar dizartriyani chakirishi mumkinmi degan savolga ko'p mualliflar yo'q deb javob beradilar.

Psevdobulbar paralichning klinik ko'rinishining muskullar tonusi va tilning faol harakatini tekshirib borish misolida kuzatishimiz mumkin. Agar bemorning og'zi ochib ko'rilganda til muskullar atrofiyasi yo'qligini ko'rish mumkin. Til odatda orqaga tortilgan, o'rta qismi ko'tarilgan va yutqinga kirish yo'lini berkitib turgan bo'ladi. Odatda bemorlar tilini og'iz bo'shlig'idan chiqara olmaydilar.



Tilni oldinga chiqarib qilinadigan harakatdan til uchini burunga qarata chiqarilgandagi harakat kuchliroq buziladi. Bemor talab qilinayotgan harakatni tilning oldingi qismini pastki lab va pastki jag‘ bilan passiv ko‘tarishi hisobiga bajarish mumkin. Bunda til taranglashgan bo‘lib, til uchi yuqoriga qayrilmaydi va yuqorigi lab terisiga tegmaydi, tez holdan toyish sodir bo‘ladi va til sekin–asta yoki silkinishga o‘xshab og‘iz bo‘shlig‘iga «kirib ketadi».

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bemorlar uchun boshqa harakatlarga nisbatan til uchining iyakka qarata qiladigan pastga harakati bir muncha osonroqdir. Biroq tilning eng pastki uchi pastga egilmaydi va iyak terisiga tegmaydi. Tilning yon tomonga qiladigan harakati ayniqsa og‘iz bo‘shlig‘idan chiqarilganda ham kichik amplituda bilan harakterlanadi, buning ustiga til butun massasi bo‘ylab joylashadi, bunda taranglashgan til uchi yon tomonga harakat qilmaydi.

Tovushlar talaffuzining keyingi xususiyati emotsional – harakat innervatsiyasining buzilishi hisoblanadi, bu nutqning prosodik tomonidagi buzilishlarda namoyon bo‘ladi. Bunda faqat artikulyatsiya emas, nutq tempi, ritmi, tez yoki sekin gaprish imkoniyati, ohangdorligi buziladi. Nutqning emotsional ohangi yo‘qoladi, nutq monoton, manqalangan, bir xil bo‘lib qoladi. Iborali nutq davomida uning doimiy to‘xtab qolishi yuz beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичёва Т.Б. Преодоление общего недоразвития речи у дошкольников. – М., 1990.
2. Жукова Н.С. Преодоление недоразвития речи у детей. – М., 1994.
3. Иваненко С.Ф. Формирование восприятия речи у детей с тяжёлыми нарушениями произношения. – М., 1984.
4. Картушина М.Ю. Логоритмические занятия в детском саду. – М., 2004.